

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

*Usmonova Yulduz Nomoz qizi*  
*Qashqadaryo viloyati Qarshi*  
*tumani 23-DMTT tarbiyachisi*  
*usmonovayulduz@gmail.com*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati, afzalliklari va mavjud muammolari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida interaktiv doskalar, multimedia vositalari, ta'limiy mobil ilovalar, elektron resurslar va onlayn platformalarning ta'lim jarayonidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalar orqali bolalarning intellektual salohiyati, ijodkorligi, mustaqil fikrlashi va qiziquvchanligini rivojlantirish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. Maqolada zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishda uchraydigan texnik, metodik va pedagogik muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Natijada, maktabgacha ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish ta'lim sifatini oshirishning muhim omili ekanligi asoslangan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, axborot texnologiyalari, raqamli texnologiyalar, interaktiv ta'lim, multimedia vositalari, mobil ilovalar, pedagogik innovatsiyalar, raqamli kompetensiya, ta'lim samaradorligi.

**Kirish.** Bugungi kunda dunyo miqyosida raqamli transformatsiya jarayonlari barcha sohalarda, ayniqsa ta'lim tizimida jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim jarayoniga keng joriy etilishi ta'lim sifatini oshirish, innovatsion pedagogik yondashuvlarni rivojlantirish hamda yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida axborot texnologiyalaridan foydalanish bolalarning intellektual, ijodiy, kommunikativ va ijtimoiy rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Shu sababli, ushbu davrda zamonaviy pedagogik va raqamli vositalardan samarali foydalanish bolalarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda ta'lim jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etishga yordam beradi. Interaktiv doskalar, multimedia dasturlari, elektron o'yinlar, mobil ilovalar va onlayn platformalar orqali bolalarga bilim berishning yangi imkoniyatlari yaratilmoqda. Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishda ayrim muammolar ham

mavjud bo'lib, ular orasida texnik jihozlarning yetishmasligi, pedagoglarning raqamli kompetensiyasi darajasining pastligi, sifatli elektron resurslarning kamligi kabi masalalar alohida e'tibor talab qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati, afzalliklari hamda mavjud muammolarini tahlil qilish, shuningdek, ularni samarali qo'llash bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari va yuzaga keladigan kamchiliklariga oid ko'plab adabiyotlar tahlil qilindi. Xususan, Z.Z.Yakubova va M.M.Shukurovalarning "Maktabgacha ta'limda raqamli texnologiyalarning o'rni va uning ahamiyati"<sup>1</sup> nomli maqolada maktabgacha ta'lim integratsiyasida raqamli texnologiyalar o'rni, zamonaviy ta'limnin muammolari ko'rilgan. Maktabgacha ta'lim integratsiyasida raqamli texnologiyalarni joriy etishning ijobiy va salbiy tomonlari, maktabgacha ta'limda raqamli texnologiyalar ahamiyati, ulardan oqilona va samarali foydalanish talablari keltirilgan. Ularnig fikricha dars jarayonlarida kompyuter texnologiyasidan foydalanish, sifatli va qiziqarli dars mashg'ulotlarini tashkil etish uchun imkoniyatlar yaratib beradi. Shu bilan birga, N.Sh.Mirzoyeva va I.X.Xakimovalarning "Raqamli texnologiyalar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda kasblar olamiga ijobiy munosabatni rivojlantirish"<sup>2</sup> nomli maqolasida Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarda kasblar haqidagi tasavvurlarni shakllantirish va ularga nisbatan ijobiy munosabatni rivojlantirish masalasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli o'yinlar, interaktiv platformalar, animatsiyalar va multimediali vositalarning bolalarning kasbiy qiziqishlari, bilish faolligi va ijtimoiy moslashuviga ta'siri yoritiladi. Raqamli ta'lim muhitida kasblarni modellashtirish orqali bolalarning real hayotdagi faoliyatga bo'lgan munosabatlari kuchayishi ilmiy asosda izohlanadi. Maqola maktabgacha ta'lim pedagoglari va metodistlari uchun amaliy ahamiyatga ega

L.I.Karimovaning "Maktabgacha ta'limda raqamli o'yinlar orqali bolalarning intellektual salohiyatini oshirishning zamonaviy usullari"<sup>3</sup> nomli maqolasida

<sup>1</sup> Yakubova Zilola Zikirovna, Shukurova Maloxat Mirzoxidovna Maktabgacha ta'limda raqamli texnologiyalarning o'rni va uning ahamiyati International scientific and practical conference "Smart technologies and innovative approaches in research: Building a digital future", February 22, 2025 <file:///C:/Users/User/Downloads/4.60.pdf>

<sup>2</sup> Mirzoyeva Nigora Shavkatjonovna Xakimova Istoda Xolmurzo qizi Raqamli texnologiyalar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda kasblar olamiga ijobiy munosabatni rivojlantirish February 2026 Qo'qon DPI Ilmiy xabarlar jurnali 8(01):421-425 DOI:10.70728/qdpi.v08.i01.054 LicenseCC BY 4.0 [https://www.researchgate.net/publication/400833542\\_RAQAMLI\\_TEXNOLOGIYALAR\\_ASOSIDA\\_MAKTABGACHA\\_YOSHDAGI\\_BOLALARDA\\_KASBLAR\\_OLAMIGA\\_IJOBIY\\_MUNOSABATNI\\_RIVOJLANTIRISH](https://www.researchgate.net/publication/400833542_RAQAMLI_TEXNOLOGIYALAR_ASOSIDA_MAKTABGACHA_YOSHDAGI_BOLALARDA_KASBLAR_OLAMIGA_IJOBIY_MUNOSABATNI_RIVOJLANTIRISH)

<sup>3</sup> Karimova Lobar Ikrom qizi "Maktabgacha ta'limda raqamli o'yinlar orqali bolalarning intellektual salohiyatini oshirishning zamonaviy usullari" Vol. 11 No. 2 (2026): ILM FAN XABARNOMASI <https://worldlyjournals.com/index.php/Yangiizlanuvchi/article/view/23500>

maktabgacha ta'lim jarayonida raqamli o'yinlardan foydalanish orqali bolalarning intellektual salohiyatini oshirishning zamonaviy usullari yoritilgan. Tadqiqotda raqamli o'yinlarning kognitiv rivojlanishga ta'siri, xususan, mantiqiy fikrlash, diqqat, xotira va muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Biroq, "...raqamli texnologiyalarni ta'limga joriy etishda ayrim muammolar ham bor. Eng avvalo, texnik vositalarning yetishmasligi muammo bo'lib qolmoqda. Har bir maktab yoki o'quv markazida zamonaviy kompyuterlar, internet tarmog'i va interaktiv doskalar mavjud emas. Bu esa raqamli ta'lim imkoniyatlaridan to'liq foydalanishni cheklaydi. Ikkinchidan, o'quvchilarning diqqatini jamlay olmasligi. Ko'p hollarda internet va gadjetlar o'quvchi e'tiborini chalg'itadi: o'qish o'rniga ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o'tkazish hollari ko'p uchraydi. Bundan tashqari, raqamli vositalardan to'g'ri foydalanish madaniyatini o'rgatish ham muhim masala hisoblanadi"<sup>4</sup>.

M.K.Xamrayevaning "Raqamli texnologiyalar davrida maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy kompetentligi"<sup>5</sup> nomli tadqiqotida raqamli texnologiyalar asrida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini oshirish masalalari tahlil etilgan. Raqamlashtirish jarayonlarining ta'lim tizimiga ta'siri, tarbiyachilar uchun raqamli savodxonlik va zamonaviy pedagogik yondashuvlar muhimligi asoslab berilgan.

### **Tahlil natijalari**

Bugungi kunda jamiyatning barcha sohalarida raqamli transformatsiya jarayonlari jadallik bilan rivojlanmoqda. Ta'lim tizimi ham bu jarayondan chetda qolmayapti. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish bolalarning intellektual, ijodiy va kommunikativ rivojlanishida muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Erta yoshdan raqamli vositalar bilan tanishish bolalarda mustaqil fikrlash, tezkor qaror qabul qilish hamda axborotni qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Maktabgacha ta'lim tizimida axborot texnologiyalaridan foydalanish nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki tarbiyachilar faoliyatini ham samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Multimedia vositalari, interaktiv doskalar, elektron o'yinlar, mobil ilovalar va masofaviy ta'lim platformalari o'quv jarayonini qiziqarli, samarali va innovatsion shaklga keltiradi.

<sup>4</sup> O'.Jalolov Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonida: imkoniyat va muammolar 21.10.2025 <https://minjusttraining.uz/en/news/raqamli-texnologiyalar-talim-jarayonida-imkoniyat-va-muammolar>

<sup>5</sup> Xamrayeva Mahliyo Komiljonovna "Raqamli texnologiyalar davrida maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy kompetentligi" International scientific and practical conference "Modern approaches in teaching exact and natural sciences: challenges and solutions", MAY 30, 2025 [https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/00109/109\\_i\\_20250613\\_182244\\_5.51.pdf](https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/00109/109_i_20250613_182244_5.51.pdf)

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida zamonaviy axborot texnologiyalarining turlari:	Interaktiv doskalar – bolalarning ko'rish, eshitish va amaliy faoliyatini birlashtiradi;
	Ta'limiy mobil ilovalar – harflar, sonlar, ranglar va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi;
	Multimedia dasturlari – animatsiya, audio va video materiallar orqali mavzuni tushuntiradi;
	Elektron kitoblar va resurslar – bolalarning mustaqil o'rganish imkoniyatini kengaytiradi;
	Onlayn platformalar – ota-onalar va pedagoglar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi.


### **1-rasm. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida zamonaviy axborot texnologiyalarining turlari<sup>6</sup>**

Rasmda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llanilayotgan zamonaviy axborot texnologiyalarining asosiy turlari yoritilgan bo'lib, ular ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, interaktiv doskalar bolalarning ko'rish, eshitish va amaliy faoliyatini birlashtirib, mashg'ulotlarni qiziqarli va tushunarli tashkil etishga xizmat qiladi. Ta'limiy mobil ilovalar esa bolalarning harflar, sonlar, ranglar hamda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Multimedia dasturlari orqali animatsiya, audio va video materiallardan foydalanish bolalarning diqqatini jalb etib, mavzularni oson o'zlashtirish imkonini beradi.

Shuningdek, elektron kitoblar va raqamli resurslar bolalarda mustaqil o'rganish ko'nikmasini shakllantirsa, onlayn platformalar ota-onalar hamda pedagoglar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi. Bu esa ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlashga yordam beradi. Rasmda keltirilgan texnologiyalar maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish, bolalarning intellektual salohiyatini oshirish va pedagogik faoliyat samaradorligini kuchaytirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Maktabgacha ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki bolalarning aqliy salohiyati, qiziquvchanligi va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Raqamli vositalar yordamida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bolalarda yangi bilimlarni osonroq qabul qilish, atrof-muhitga nisbatan faol qiziqish bildirish hamda ijodiy yondashuvni shakllantiradi. Zamonaviy texnologiyalar quyidagi ijobiy natijalarni beradi (2-rasm).

<sup>6</sup> Muallif ishlanmasi




**2-rasm. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish afzalliklari<sup>7</sup>**

Rasmda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning asosiy afzalliklari tizimli ravishda ko'rsatib berilgan. Rasimga ko'ra, axborot texnologiyalari avvalo ta'lim samaradorligini oshirib, bolalarning mavzularni tezroq, osonroq va qiziqarli tarzda o'zlashtirishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, interaktiv va multimedia vositalari bolalarning aqliy qobiliyatini rivojlantirib, mantiqiy fikrlash, muammolarni hal qilish hamda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Rang-barang va zamonaviy raqamli materiallar esa bolalarda bilim olishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirib, ularning qiziquvchanligini yanada oshiradi.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar bolalarning ijodkorligini rivojlantirib, tasavvur doirasini kengaytiradi. Turli o'yinlar, animatsiyalar va topshiriqlar orqali bolalar yangi g'oyalarni shakllantirishga moyil bo'ladilar. Individual yondashuv imkoniyatining mavjudligi esa har bir bolaning yosh xususiyati va qobiliyatiga mos ta'lim berishni ta'minlaydi. Pedagoglar uchun esa zamonaviy texnologiyalar mashg'ulotlarni rejalashtirish, nazorat qilish va samarali tashkil etishda qulaylik yaratadi. Umuman olganda, rasmda aks ettirilgan afzalliklar maktabgacha ta'lim tizimida axborot texnologiyalarining nafaqat o'quv jarayonini modernizatsiya qilish, balki bolalarning har tomonlama intellektual va ijodiy rivojlanishiga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Biroq, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishda yuzaga keladigan ayrim muammolar mavjud (3-rasm).

<sup>7</sup> Muallif ishlanmasi



### 3-rasm. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishda yuzaga keladigan asosiy muammolar<sup>8</sup>

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolar aniq va tizimli ravishda aniqlandi. Jumladan, texnik jihozlarning yetishmasligi ko'plab ta'lim muassasalarida kompyuter, planshet, interaktiv doska va internet kabi zarur vositalarning to'liq emasligi bilan izohlanadi. Bu holat zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga samarali joriy etishni qiyinlashtiradi. Shuningdek, pedagoglarning raqamli kompetensiyasi pastligi ham muhim muammo bo'lib, ayrim tarbiyachilar axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha yetarli malakaga ega emasligi sababli ta'lim samaradorligi pasayadi. Bolalarning ekran qarshisida ortiqcha vaqt o'tkazishi va sifatli ta'limiy elektron resurslarning kamligi kabi muammolar ham mavjud bo'lib, raqamli vositalardan me'yoridan ortiq foydalanish bolalarning sog'lig'i, diqqat darajasi va ijtimoiy faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari, milliy qadriyatlarga mos, sifatli elektron o'quv materiallarining yetarli emasligi ta'lim mazmunining to'laqonli rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Umuman olganda, mazkur rasm zamonaviy axborot texnologiyalarini maktabgacha ta'limga joriy etishda mavjud muammolarni chuqur tahlil qilish va ularni bartaraf etish uchun kompleks choralar zarurligini ko'rsatadi.

#### Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, bolalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish, ijodkorligini kuchaytirish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Interaktiv

<sup>8</sup> Muallif ishlanmasi

doskalar, multimedia vositalari, ta'limiy mobil ilovalar, elektron resurslar hamda onlayn platformalar orqali ta'lim jarayoni yanada qiziqarli, innovatsion va samarali tashkil etiladi. Bu esa bolalarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, axborot texnologiyalarini maktabgacha ta'lim tizimiga keng joriy etishda texnik jihozlarning yetishmasligi, pedagoglarning raqamli kompetensiyasini oshirish zarurati, sifatli elektron resurslar tanqisligi hamda bolalarning ekran qarshisida ortiqcha vaqt o'tkazishi kabi muammolar mavjud. Mazkur muammolarni bartaraf etish orqali zamonaviy texnologiyalarning ta'limdagi samaradorligini yanada oshirish mumkin.

Shulardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini zamonaviy texnik vositalar bilan to'liq ta'minlash;

Ikkinchidan, pedagog va tarbiyachilarning raqamli kompetensiyasini oshirish bo'yicha malaka oshirish kurslarini kengaytirish;

Uchinchidan, milliy qadriyatlarga mos, sifatli va xavfsiz elektron ta'lim resurslarini yaratish;

To'rtinchidan, bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda raqamli vositalardan me'yorida foydalanishni yo'lga qo'yish;

Beshinchidan, ota-onalar bilan hamkorlikda raqamli ta'lim madaniyatini shakllantirish;

Umuman olganda, zamonaviy axborot texnologiyalaridan oqilona va samarali foydalanish maktabgacha ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi hamda barkamol, bilimli va zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" Qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 22-oktabrda qabul qilingan <https://lex.uz/acts/-4646908>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.02.2026 yildagi PF-19-son <https://lex.uz/docs/-8037353>
3. Yakubova Zilola Zikirovna, Shukurova Maloxat Mirzoxidovna Maktabgacha ta'limda raqamli texnologiyalarning o'rnini va uning ahamiyati International scientific and practical conference "Smart technologies and innovative approaches in research: Building a digital future", February 22, 2025 <file:///C:/Users/User/Downloads/4.60.pdf>
4. Mirzoyeva Nigora Shavkatjonovna Xakimova Istoda Xolmurzo qizi Raqamli texnologiyalar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda kasblar olamiga ijobiy munosabatni rivojlantirish February 2026 Qo'qon DPI Ilmiy xabarlar jurnali

8(01):421-425 DOI:10.70728/qdpi.v08.i01.054 LicenseCC BY 4.0  
[https://www.researchgate.net/publication/400833542\\_RAQAMLI\\_TEXNOLOGIYALAR\\_ASOSIDA\\_MAKTABGACHA\\_YOSHDAGI\\_BOLALARDA\\_KASBLAR\\_OLAMIGA\\_IJOBIY\\_MUNOSABATNI\\_RIVOJLANTIRISH](https://www.researchgate.net/publication/400833542_RAQAMLI_TEXNOLOGIYALAR_ASOSIDA_MAKTABGACHA_YOSHDAGI_BOLALARDA_KASBLAR_OLAMIGA_IJOBIY_MUNOSABATNI_RIVOJLANTIRISH)

5. Karimova Lobar Ikrom qizi “Maktabgacha ta’limda raqamli o‘yinlar orqali bolalarning intellektual salohiyatini oshirishning zamonaviy usullari” Vol. 11 No. 2 (2026): ILM FAN XABARNOMASI  
<https://worldlyjournals.com/index.php/Yangiizlanuvchi/article/view/23500>
6. O‘.Jalolov Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonida: imkoniyat va muammolar 21.10.2025 <https://minjusttraining.uz/en/news/raqamli-texnologiyalar-talim-jarayonida-imkoniyat-va-muammolar>
7. Xamrayeva Mahliyo Komiljonovna “Raqamli texnologiyalar davrida maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy kompetentligi” International scientific and practical conference “Modern approaches in teaching exact and natural sciences: challenges and solutions”, MAY 30, 2025  
[https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/00109/109\\_i\\_20250613\\_182244\\_5.51.pdf](https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/00109/109_i_20250613_182244_5.51.pdf)
8. Muallif ishlanmasi